

Qarshi davlat universiteti

Pedagogika fakulteti

Musiqi ta'limi yo'nalishi

I-kurs talabasi Sayimova Yulduzning

Nemis tili fanidan

“Das substantiv”

mavzuida yozgan

R E F E R A T

2016

Ot (Das Substantiv, das Hauptwort)

Predmetlik ma'nosini ifodalaydigan va grammatik son, kelishik, rod kategoriyalariga ega bo'lgan mustaqil so'zlar **ot** deb ataladi: *das Buch (kitob), der Bleistift (qalam)* kabi. Grammatikada ot so'zi keng ma'noda qo'llanilib, u jonli narsalarning nomini (*der Mensch, das Fohlen, der Storch, die Wespe*), konkret narsalarni bildiruvchi so'zlarni (*die Birne, der Stein*), geografik nomlarni (*das Usbekistan, das Deutschland*), mavhum hodisa, holat va shu kabi tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni (*das Geschrei, die Liebe, die Bewegung, der Frieden*), o'simliklarning nomlarini (*die Rose*), payt ma'nosini anglatadigan so'zlarni (*der Herbst*) ham o'z ichiga oladi. Ot turkumiga oid so'zlar (*wer?*) kim? yoki (*was?*) nima? So'rog'iga javob bo'ladi: *das Mädchen kommt (qiz kelyapti), die Schule ist groß (maktab katta)* kabi.

Nemis tilida ot leksema o'zi olgan kelishik formasiga muvofiq ega, to'ldiruvchi, nominativ gap, izohlovchi, undalma vazifasida keladi.

Otlarning semantik klassifikatsiyasi (Die semantische Klassifikation der Substantive)

Otlar anglatgan ma'nolariga ko'ra dastlab ikkiga bo'linadi:

I. **Konkret otlar** (die Konkreta)

II. **Abstrakt yoki mavhum otlar** (die Abstrakta).

I. *Konkret otlar* o'z navbatida yana quyidagi gruppalariga bo'linadi:

1) **turdosh otlar (die Gattungsname)** bir xildagi predmet, shaxs yoki hodisalarning umumlashtiruvchi nomini bildiradi. Masalan: *der Mensch, die Stadt, die Nachtigal, die Blume*;

2) **jamlovchi otlar (die Sammelnamen)** ko'pgina birlik formada kelib, yakka-yakka predmetlarni emas, balki bir butunga jamlangan predmetlarning to'ldasini, yig'indisini bir butun holda ko'rsatadi. Masalan: *das Gebirge, das Volk, die Herde, die Bevölkerung, das Gemüse*;

3) **yakka otlarda** esa ularning birlik formasida ham, ko'plik formasida ham predmetlar yakka-yakka tasavvur qilinadi. Masalan: *der Soldat*.

4) **donalab sanab bo'lmaydigan otlar (die Stoffnamen)** ham bir butunga jamlangan predmetlarni bildiradi. Bu xildagi otlarni donalab sanab bo'lmaydi, odatda ular birlikda qo'llaniladi. Masalan: *das Wasser, der Sekt, der Wein, das Eisen*.

5) **Atoqli otlar (die Eigennamen)** bir xildagi predmet yoki hodisalardan birini ajratib ko'rsatadi. Atoqli ot ayrim shaxs yoki predmetning maxsus nomidir. Bunday otlar odamlarning ismi, familyalari, taxalluslari, ko'l, daryo, gazeta, jurnal nomlarini bildirishi mumkin. Masalan: *A.Nawoi, Karim, die Schweiz, der Rein, "Deutschland"*

II. *Abstrakt otlar* mavhum tushunchalarini, abstrakt belgi, xususiyat va holatni predmet sifatida ifodalaydi. Masalan: *die Liebe, die Freiheit, das Glück, die Größe*.

Otlarning yasalishi (Die Bildung der Substantive)

Nemis tilida otlar ikki asosiy usul 1) **affiksasiya usuli (morfologik usul)**, 2) **kompazisiya usuli (sintaktik usul)** bilan yasaladi .

1.Ot *yasashning affiksasiya usuli (morfologik) usuli* (die Mittel der Affigierung)

Nemis tilida affiksasiya usulida otlar maxsus morfologik vositalar yordamida yasaldi. Masalan: **-er**,: *der Arbeit-er, der Yäg-er, der Flieg-er*.

Ot yasovchi morfologik vositalarga **prefiks** (old qo'shimcha) va **suffikslar** kiradi..

Ot yasovchi **prefikslar** quyidagilar: **un-**, **miß-**, **ur-**, **erz-**, va **ge-**.

un- prefiksi otga inkor ma'no berib, otning prefikssiz formasiga nisbatan antonim formasini yasaydi.

Ungeduld – Geduld

Unruhe – Ruhe

Unwille – Wille kabi

un- prefiksi o'z xususiyatiga ko'ra o'zbek tilining –siz va no- affikslarga yaqin turadi: *Geduld – sabr; Ungeduld – sabrsizlik, Ruhe – tinchlik; Unruhe – notinchlik, Wille – erk ; Unwille – erksizlik* kabi.

un- prefiksi ma'nosini anglatishdan tashqari birga ishlatilgan so'zning ma'nosini kuchaytirish uchun ham qo'llanadi.

die Unmasse – juda katta miqdor;

die Unsumme – juda katta mablag'

miß- prefiksi ham ma'no jihatdan **un-** prefiksiga yaqin turadi:

Mißernte, Mißjahr, Mißheirat kabi

miß- prefiksiga xos ma'no ham o'zbek tilida inkor ma'noli **no-** **siz-** affikslari yordamida idoda etiladi:

Mißernte – unimsizlik, hosilsizlik; Mißjahr – hosilsiz yil, Mißheirat – muvaffaqiyatsiz uylanish yoki muvaffaqiyatsiz erga tegish.

Ur- prefeksi ko'pincha ot bildirgan narsa – predmetning qadimgi, boshlang'ich holatini anglatadi. **Ur-** prefeksiga xos ma'no o'zbek tilida qadimgi, boshlang'ich kabi so'zlar yordamida ishlatiladi:

Urform – boshlang'ich forma;

Urgeschichte – qadimgi tarix

Urmensch – qadimgi odam.

erz- prefiksi so'z ma'nosini qaytarish uchun ishlatiladi: *Erznarr, Erzfeind* kabi.

erz- prefiksiga xos ma'no o'zbek tilida juda (o'ta ketgan) kabi qaytaruvchi so'zlar yordamida ifodalanadi: *Erznarr* – juda (ota ketgan) nodon; *Erzfeind* – ashaddiy dushman kabi.

ge- prefiksi avval (odamlarga oid bo'lgan) ot ma'nosini ifoda etgan. Masalan *der Gemahl* (er), *Geselle* (shogirt, xalfa), *Gehilfe* (yordamchi) kabi. Bunday ma'noni anglatadigan otlar mujskoy rodga oid bo'lgan.

ge- prefiksi bilan yasalgan sredniy rod otlari boshqa gruppani tashkil qiladi va ular kollektiv ma'noni ifodalaydi: *das Gebirge* – *das Geflügel* kabi.

ge- prefiksli ot o'zbek tiliga tarjima qilinganda ko'plik formasida ishlatiladi: *das Giberge* – *tog'lar* (*tog' tizmalari*); *Geflügel* – parrandalar (*uy qushlari*) kabi.

Ot yasovchi **suffikslar** quyidagi turlarga bo'linadi. 1) shaxs nomlarini bildiradigan suffikslar ; 2) internatsional suffikslar ; 3) narsa va mavhum tushuncha nomlarini anglatadigan suffikslar ; 4) shaxs va predmet nomlarini kichraytirish ma'nosini beradigan suffikslar ;

Shaxs nomlarini bildiradigan suffikslar:

-er: *der Arbeiter, der Jäger, der Flieger;*

-ner: *der Schaffner, der Pförtner;*

-ler: *der Tischler, der Künstler ;*

-aner: *der Kegelaner, der Venetianer ;*

-ling: *der Lehrling, der Liebling;*

-in: *die Arbeiterin, die Lehrerin* kabi.

Internatsional suffikslar. Eng ko'p qo'llanadigan internatsional suffikslar quyidagilar

-ist: *der Jurist, der Optimist;*

-ant: *der Aspirant, der Konsonant;*

Bundan tashqari quyidagi suffikslar ham internatsional suffikslar hisoblanadi:

-ent –ismus: *der Diregent ; -tion:* *die Operation; -nom, -log, -soph, -arch, -et, -it, -at, -ot, -or, al, -ar, -är, -an, -on, -eur, -ier:* *der Agronom, der Philolog (e), der, Poet, der Kandidat, der Patriot, der Direktor, der Monarch, der Philosoph* kabi.

Predmet va abstrakt tushuncha nomlarini ifoda etadigan suffikslar:

-ung: *die Bildung, die Übung, Besprechung; -heit:* *die Schönheit, die Kindheit; -keit (-igkeit);* *die Dankbarkeit, die Schnelligkeit; -shaft:* *die Wissenschaft, die Freundschaft; -tum:* *das Heldentum, das Eigentum; -ei (-erei):* *die Malerei, die Bäckerei; -er:* *der Wecker, der Zeiger; -ling:* *der Schmetterling, der Frühling, -ing:* *der Hering, das Messing; -tel:* *das Drittel, das Viertel* kabi.

Unumli bo'lmagan suffikslar :

-el: *der Deckel, der Habel, der Flügel; -e :* *die Güte, die Wärme, die Länge; -t:* *die Schrift, die Kunst ; -nis:* *die Erlaubnis, das Hindernis; -sal, (-sel):* *das Schicksal, die Mühsal, das Rätsel* kabi.

Quyidagi suffikslar otga kichrayish ma'nosini beradi:

-chen, -lein: *das Mädchen, das Mütterchen, das Städtchen, das Vögelchen, das Röslein, das Knäblein, das Büchlein* kabi.

2. Ot yasashning kompozitsiya (sintaktik) usuli: Ot yasashning kompozitsiya usulida birdan ortiq so'zning o'zak – negizga qo'shiluvidan yangi (qo'shma) ot hosil bo'ladi: *die Handuhr, die Wanduhr*;

Nemis tilida qo'shma otlar ikki, uch, to'rt, hatto besh va undan ortiq so'zdan yasalishi mumkin: *Schreibtisch, Wanduhr, Untergrundbahn, Straßenbahnhaltestelle; Untergrundbahnstationsleiter, Briefmarkenverkauf.*

Nemis tilida qo'shma otlar to'la qo'shilgan va to'liq qo'shilmagan (eigentliche Zusammensetzungen und nichteigentliche Zusammensetzungen) maxsus ko'rinishga ega, boshqacha qilib aytganda qo'shma otlarning komponentlari bir-biri bilan biriktiruvchi elementlarsiz yoki bog'lovchi element yordamida qo'shila oladi. Masalan:

Lokomotivführer va *Lokomotivenführer*

Berggipfel va *Bergesgipfel*

Waldrand va *Waldesrand*

Nemis tilida qo'shma otlarning to'la qo'shilmagan turiga yana aniqlovchi sifatida kelgan otning ko'plik formada qo'llanishi (Plural - komposita) ham kiradi. Masalan: *Kindergarten, Bücherschrank, Bücherregal, Wörterbuch.*

Nemis tilida **qisqartma otlarning** (qisqartmalarning otlarning) (Initialkurzwörter) bir necha turi bor:

1) qo'shma so'z birikmalari boshlanadigan harf (tovush) lardan tuzilgan qisqartirmalar:

DIN – *Deutsch Industrie Norm*

2) Qo'shma otlarning birinchi boshlang'ich harflarining keyingi bo'lakka qo'shilishidan yasalgan qisqartmalar:

U-Bahn – *Untergrundbahn*

U-Boot – *Unterseeboot*

3) so'zlarning bir qismi tushirib qolish bilan tuzilgan qisqartmalar: **gestern** *Abend* o'rniga *gest.* *Ab.:* **gezählte Blätter** o'rniga *gez.Bl.*

Bunday qisqartmalar, asosan, yozma ishlarda ishlatiladi.

4) so'zdagi unlilarning hammasini va undoshlarning ba'zilarini tushirib qoldirish yo'li bilan yasalgan (konstruksiya) qisqartmalar. Masalan: **monatlich** o'rniga *mtl*; **Zeitung** o'rniga *Ztg*; **Doktor** o'rniga *Dr*; **vergleich** o'rniga *Vgl.*

5) so'zlarning bosh bo'g'inlarini olish yo'li bilan yasalgan qisqartmalar: **das Moped** (*motorisiertes Fahrrad*)-*Motor und Pedal*

6) Birinchi so'z to'la saqlanib, ikkinchi so'zning bosh harfi olingan qisqartmalar. Masalan:

Berlin – O (*Berlin – Osten*); **Berlin – W** (*Berlin – Westen*)

Substantsiya yo'li bilan ot yasash

Nemis tilida har bir soʻz turkumi otga aylana oladi. Ot yasashning bu usuli substantsiya deyiladi. Otga aylangan soʻzlar bosh harf bilan yozilib, tegishli artikl bilan qoʻllaniladi.

- a) har bir infinitiv sredniy roddagi ot boʻla oladi, masalan: *lesen* (oʻqimoq)- *das Lesen* (oʻqish); *leben* (yashamoq)- *das Leben* (yashash, turmush); *essen* (yemoq)- *das Essen* (yeyish)
- b) otga aylangan sifatlar maʼnosiga koʻra mujskoy yoki jenskoy rodga tegishli boʻladi: *krank* (kasal)- *der Kranke* (kasal kishi); *die Kranke* (kasal xotin). Baʼzi feʼl oʻzaklari ham otga aylanadi, masalan: *springen* feʼlining *sprung* imperfekt formasidan *der Sprung* (sakrash) oti hosil boʻlgan *gehen* (yurmoq) feʼlining Partizip II formasidan (*gegangen*) *der Gang* (yoʻl, yurish) oti hosil boʻlgan

Otning grammatik kategoriyalari (Die grammatischen Kategorien des Substantivs)

Nemis tilida ot grammatik rod, son, kelishik kategoriyalariga ega.

Grammatik rod kategoriyasi (Das grammatische Geschlecht)

Nemis tilida otlar uch xil grammatik rodga ega boʻlib, ularning oldida rodni koʻrsatuvchi **der, die, das** artikllari ishlatiladi: **der**-mujskoy rod (das Maskulinum, das männliche Geschlecht), **die** - jenskiy rod (das Femininum, das weibliche Geschlecht), **das**-sredniy rod (das Neutrum, das sächliche Geschlecht). Otning grammatik rodi avvalo artikl vositasida ifodalanadi: **der** Tisch, **das** Heft, **die** Vase.

Rod boshqa vositalar (sifat va olmosh) bilan ham ifoda etilishi mumkin. Masalan: groß-**er** Garten, schwarz-**e** Tafel, klar-**es** Wasser.

Otlarning grammatik rodini uning mazmuni hamda formasiga qarab ham belgilash mumkin.

Otlarning grammatik rodini ularning mazmuniga qarab aniqlash (Die Bestimmung des Geschlechts der Substantive nach ihrer Bedeutung)

Mujskoy rodga quyidagi otlar kiradi:

1) erkak jinsiga xos boʻlgan soʻzlar: *der Vater*-ota, *der Greis*- chol, *der Sohn*-oʻgʻil, *der Ochse*-buqa, *der Bruder*-aka, uka, *der Neffe*-jiyan (ogʻil bola), *der Bräutigam*-kuyov, *der Bock*-serka, *goʻchqor*, *der Kater*-erkak mushuk, *der Hahn*-xoʻroz;

2) Ko'pchilik qushlarning nomi: *der Storch-laylak, der Kranich-turna, der Adler-burgut, der Geier-kalxat, der Schwan- oqqush, der Kuckuck-kakku qush, der Uhu-ukki, der Rabe-qarg'a, der Pinguin-pingvin, der Star-chug'urchuq, der Spatz-chumchuq*;

3) Yil fasllari, oylar hamda hafta kunlari nomlari: *der Frühling-bahor, der Sommer-yoz, der Herbst- kuz, der Winter- qish, der Januar- yanvar, der Mai- may, der September-sentyabr, der Dezember- dekabr, der Montag- dushanba, der Donnerstag- payshanba, der Sonnabend- shanba*;

4) Qutb nomlari: *der Norden-shimol, der Süden –janub, der Osten- sharq, der Westen-g'arb*;

5) Tog' va ko'llarning nomlari: *der Harz- Garts, der Brocken-Brokken, der Himalaja-Himolay, der Kaukasus-Kavkaz, der Pamir-Pomir*;

6) pul birliklarini ifodalovchi so'zlar: *der Rubel, der Dollar, der Schein, der Pfennig: biroq- die Mark, die Kopeke, das Pfund*;

7) Har ikkala jins uchun teng qo'llanadigan so'zlar: *Mensch, der Held-qahramon, der Bürger-fuqaro, der Freund- do'st, der Genosse-o'rtoq, der Professor-professor, der Dekan-dekan, der Sportler-sportchi, der Leiter-rahbar*;

Jenskiy rodga quyidagi otlar kiradi:

1) Xotin jinsiga mansub bo'lgan nomlar: *die Frau-ayol, die Mutter-ona, die Amme-amma, die Tante- xola, die Tochter-qiz, die Schwester-singil, opa, die Nichte-jiyan(qiz bola)*;

2) Urg'ochi hayvonlarning nomlari: *die Kuh-sigir, die Stute-baytal, biya, die Ziege-echki, die Sau-cho 'chqa, die Henne-kurk tovuq*.

3) oxiri **-e, -l** bilan tugagan qushlar nomi: *die Schwalbe-qaldirg'och, die Möwe-chayka(baliqchi qush), die Taube-kaputar, die Lerche-to'rg'ay, die Eule-boyo'g'li, die Ente-o'rdak, die Krähe-qarg'a, zog'*;

4) Ko'pchilik hashorotlarning nomlari: *die Ameise-chumoli, die Wespe-ari, die Spinne-o'rgimchak, die Motte- kuya, die Fliege-pashsha, , die Mücke-chivin, die Raupe-kapalak qurti, die Libelle-ninachi, die Heuschrecke-chigirtka*

5) daryolarning nomlari: *die Elbe, die Oder, die Weser, die Spree, die Donau, die Angara, die Mosel, die Ruhr: biroq: der Rhein, der Amur, der Amu-Darya, der Don, der Main, der Serafschan*;

6) Ko'pchilik daraxtlarning nomlari: *die Eiche-dub, die Birke-qayin daraxti, die Weide-tol, die Pappel-terak, die Linde-arg'uvon daraxti, die Buche-qora qayin, die Tanne-archa,, die Kiefer-qarag'ay, die Zeder-kedr, die Palme-palma, die Kastanie-kashtan*;

7) Gullar nomlari: *die Rose-atirgul, die Tulpe-lola, die Klette-chakamug', alomatchoy, die Nelke-chinnigul, die Lilie-liliya, die Iris-iris, die Aster-astra, die Kamelle-boychechak: biroq- der Flieder-sirena*;

8) Meva va sabzavot nomlari: *die Pflaume- olxo'ri, die Kirsche-olcha, die Birne-nok, die Apfelsine-apelsin, die Zitrone-limon, die Granate- anor, die Aprikose-abrikos, die Feige-anjir, die Nuß- yong'oq, die Melone- qovun, die Rübe-sholg'om, die Gurke-bodring, die Tomate- pomidor, die Zwiebel-piyoz, die Kartoffel-*

kartoshka:biroq:der Apfel-olma, der Pfirsich-shaftoli, der Rettich-turp, das Radischen-rediska;

9) oxiri **-ei**, **-ie** yoki **-e** bilan tugagan davlat,oblast va o'lka nomlari:*die Mongolei, die Turkei, die Tschechoslowakei;*

shuningdek: *die Krim, die Schweiz, die Arktis;*

Sredniy rodga quyidagi otlar kiradi:

1) Odam va hayvon bolalari nomlari: *das Kind-bola, das Lamm – qo'zi, das Fohlen -toy, das Füllen-toycha, qulun, das Kalb-buzoq, das Ferkel-cho'chqa bola.*

2) Qit'a va ko'pchilik davlatlar, shaharlarning nomlari: *das Usbekistan, das Deutschland (Sredniy roddagi joy nomlari keltirilgan) biroq:der Irak, der Jemen, der Sudan.*

3) Ko'pchilik metallarning nomlari: *das Gold-oltin, das Silber-kumush, das Kupfer-mis, das Blei-qo'rg'oshin, das Eisen-temir, das Zink-ruh:biroq- der Stahl-po'lat.*

4) alfavitdagi harflar: *das A, das B, das Zet, das Ypsilon*

Otlarning grammatik rodini ularning so'z yasovchi suffikslariga qarab aniqlash (Die Bestimmung des Geschlechts der Substantive nach ihren wortbildenden Suffixen)

Otlar tuzilishiga ko'ra *tub* (die Wurzelwörter), *yasama* (die abgeleitete Wörter) va *qo'shma* (die zusammengesetzten Wörter) bo'ladi.

Tub otlar birgina o'zakdan iborat bo'ladi. Ularning rodini formasiga qarab aniqlab bo'lmaydi. Masalan: *der Baum, die Zeit, das Buch.*

Yasama otlar so'z yasovchi suffikslar yordamida yasaladi. Ularning rodini suffikslariga qarab aniqlash mumkin, chunki ko'pchilik ot yasovchi suffikslar faqat bir rodga tegishli bo'lgan otlarni yasaydi. Masalan: **-er** suffiksi hamma vaqt mujskoy roddagi otlarni, **-ung** esa jenskiy roddagi otlarni yasash uchun xizmat qiladi:

arbeiten – der Arbeiter
dichten – der Dichter
wohnen – die Wohnung
bilden – die Bildung

Mujskoy roddagi otlarning qo'shimchalari:

-er, -ner, -ler, -ling qo'shimchalari nemis tiliga xos qo'shimchalardir. Bu qo'shimchalarning xususiyati quyidagicha: **-er** qo'shimchasi asosan fe'llardan ot yasab, biror kasb egasini bildiradi: **-er** qo'shimchasining ma'nosi o'zbek tilidagi **-chi** va **-lik** qo'shimchalarining ma'nosiga mos keladi:

lehren (o'qitmoq) – der Lehrer (o'qituvchi); fliegen (uchmoq) - der Fflieger (uchuvchi)

-ling qo'shimchasi odatda shaxsning belgi - otini bildiradi: *der Lehrling* (shogird bola) – *der Yungling* (yosh yigit)

-ner va **-ler** qo'shimchalari shaxsning hunari va mashg'ulotini bildiradi. Bu qo'shimchalarning ma'nosi ham o'zbek tilidagi **-chi** qo'shimchasi ma'nosiga mos keladi:

die Eisenbahn – Eisenbahner temir yul, temir yulchi,

die Rede – der Redner nutq – *nutq so'zlovch*,

der Sport – der Sportler sport – *Sportchi* ,

die Kunst – der Künstler san'at – *san'atkor*,

der Tisch – der Tishler stol – *duradgor*.

-e qo'shimchasi ko'pinchajonli predmetlarni, shaxsning biror millatga masubligini bildiradi:

der Bote – elchi, *der Erbe – merosxo'r*, *der Deutsche – nemis*, *der Usbeke – uzbek*

Yana quyidagi qo'shimchalar:

-el – *der Stachel*

-ing - *der Hering*

-ich – *der Teppich*

-ig – *der König* (lekin: *das Reisig*)

-s – *der Schnaps*

Nemis tilida yuqorida aytilgan qo'shimchalardan boshqa chet tillaridan kirgan qo'shimchalar ham ishlatiladi:

-ist – *der Jurist*, *der Optimist*;

-ent – *der Student*, *der Dozent*;

-ant – *der Aspirant*, *der Konsonant*;

-at – *der Soldat*, *der Kandidat* ;

-ier – *der Offizier*, *der Bankier*;

-or – *der Doktor*, *der Professor*;

-ismus – *der Realismus*, *der Organismus*.

-är – *der Militär* (lekin: *das Militär als Sammelname-qo'shin, armiya*) ;

-ast – *der Palast*, *der Phantast* ;

-eur – *der Friseur*, *der Ingenieur* ;

-ör – *der Likör*;

-iker – *der Fanatiker*, *der Graphiker*;

-ikus – *der Musikus*, *der Kanonikus*;

-us – *der Kursus*;

-ar – *der General*;

Jenskiy roddagi otlarning qo'shimchalari:

-in, **-heit**, **-keit**, **-ung**, **-e** qo'shimchalari jenskiy roddagi otlarning asosiy qo'shimchalaridir.

-in bilan mujskoy roddagi otlardan jenskiy rodga oid so'zlar yasaladi. Masalan: *der Lehrer* (erkak) o'qituvchi – *die Lehrerin* (ayol) o'qituvchi, *der Arbeiter* (erkak) ishchi – *die Arbeiterin* (ayol) ishchi;

-**in** hayvon nomlarini bildirgan mujskoy roddagi otlarga qo'shilib, shu hayvonni urg'ochi nomini ham bildiradi. Masalan: *der Löwe – die Löwin* (arslon – sher), *der Wolf – die Wolfin* (buri – (urg'ochi) buri);

-**heit** va -**keit** (-**igkeit**, -**keit** qo'shimchasining kengaygan formasi) qo'shimchasi bilan sifatlardan abstrakt ma'noli otlar yasaladi. Masalan: *schön* (go'zal) – *die Schönheit* (go'zallik); *krank* (kasal) – *die Krankheit* (kasallik); *tapfer* (botir) – *die Tapferkeit* (botirlik);

-**ung** qo'shimchasi bilan ko'pincha fe'llardan harakat nomini bildirgan jenskiy roddagi otlar yasaladi. Masalan: *bilden* (yasamoq) – *die Bildung* (yasash); *versammeln* (yig'moq) – *die Versammlung* (yig'ilish);

-**e** sifat yoki fe'llardan abstrakt ma'noli otlar yasaladi. Masalan: *lehren* (o'qitmoq) – *die Lehre* (ta'limot); *lang* (uzun); *die Länge* (uzunlik); *tief* (chuqur) – *die Tiefe* (chuqurlik);

-**ei**, -**(e)rei**, -**e** suffikslari yordamida: *die Gärtnerei*, *die Bücherei*, *die Weite*, *die Größe*, *die Fischerei*;

-**schaft**; *die Freundschaft*, *die Eigschaft*;

Yuqorida ko'rsatilgan qo'shimchalardan tashqari, chet tillaridan kirgan -**ie**, -**tion**, -**tät**, -**ik**, -**ion**, -**ur** qo'shimchalari ham qo'llanadi. Bu qo'shimchalarga hamma vaqt urg'u tushadi,

die Theorie, *die Chemie*, *die Universität*, *die Fabrik*, *die Politik*, *die Region*, *die Lexik*, *die Kultur*;

Turlovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan otlar ham jenskiy rodga oiddir:

-**a**: *die Kamera*, *die Ära*, *die Aula*, *die Ballerina*, (*die Ballerina*);

-**ade**: *die Ballade*, *die Fassade*, *die Marmelade*, *die Shokolade*;

-**age** (*aje* deb o'qiladi) *die Garage*, *die Bagage*, *die Etage*. Nemis tilidao 'zlashib ketgan *die Majonaise* (*äse*), *Palonaise* so'zlari ham jenskiy rodga oiddir:

-**ance**: *die Renalssance*, *die Chance*;

-**äne**: *die Föntane*, *die Qurantäne*;

-**anz**: *die Bilanz*, *die Distanz*, *die Eleganz*;

-**elle**: *die Frikadelle*, *die Zitadelle*;

-**enz**: *die Audienz*, *die Existenz*, *die Exzellenz*, *die Konsequenz*;

-**ette**: *die Dublette*, *die Etikette*, *die Pinette*, *die Toilette*;

-**ie**: (...i) *die Materie*, *die Historie*, *die Glorie*, *die Kastanie*, *die Kolonie*, *die Geographie*, *die Lotterie*, *die Kalorie*, *die Phantasie* (lekin: *das Genie*);

-**(i) ere**: (franz): *die Misere*, *die Voliere*, *die Portiere*;

-**ik**: *die Musik*, *die Politik*, *die Lyrik*, *die Etnik*, *die Botnik*, *die Mathematik*, *die Dialektik*;

-**ine**: *die Margarine*, *die Blondine*, *Maschine*, *Vitrine*, *die Kabine*;

-**ion**: *die Nation*, *die Exposition*, *die Kalkulation*, *die Religion*, *die Station*;

-**(i) tät**: *die Fakultät*, *die Oualität*, *die Realität*;

-**isse**: *die Kulisse*, *Marzisse*;

-**itis**: *die Bronchitis*, *Rachitis*;

-**ive**: *die Alternative*, *Direktive*, *die Kursivi*;

-**ose**: *die Sklerose*, *die Neurose*, *die Tuberkulose*;

-**sis**: *die Basis*, *die Dosis*, *die Genesis*;

-se: *die Base, die Genese, die Analyse;*
-ur: *die Natur, die Kultur, die Temperatur, die Registratur;*
-üre: *die Broschüre, die Gravüre.*

Sredniy roddagi otlarning qo‘shimchalari:

-chen, -lein, -tum, -nis qo‘shimchalari sredniy roddagi otlarning asosiy qo‘shimchalaridir.

-chen va **-lein** otlarga qo‘shilib kichraytirish va erkalash ma‘nolarini anglatadi va o‘zbekchadagi **-cha** qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi. Masalan: *der Tisch (stol) - das Tischchen (stolcha)*. O‘zagida **a, o, u** unlilari bo‘lgan otlarga **-chen** va **-lein** qo‘shimchalari qo‘shilganda, umlaut oladi, ya‘ni **a, o, u**, unlilari **ä, ö, ü** unlilariga almashadi. Masalan

das Buch (kitob) – das Büchlein (kitobcha);

das Haus (uy) – das Häuschen (uycha)

der Vogel (qush) – der Vögelchen.

Eslatma. Ba‘zi so‘zlarda **-chen, -lein** o‘z affikslik xususiyatini yo‘qotgan bo‘lib, bunday otlar tub so‘z sanaladi: *das Mädchen, das Veilchen*.

-tum asosan jamlik ma‘nosini bildirgan sredniy roddagi so‘zlarni yasaydi. Masalan: *der Bauer (dehqon) – das Bauerntum (dehqonchilik); der Held (qahramon) – das Heldentum (qahramonlik)*.

Eslatma. Mujskoy roddagi ba‘zi otlar ham **-tum** qo‘shimchasi bilan qo‘llaniladi: *reich (boy) – der Reichtum (boylik)*.

-nis, -sal, -sel qo‘shimchalari bilan odatda sredniy roddagi otlar yasaladi: *das Hindernis (to‘sqinlik), das Ereignis (voqea), das Schicksal (taqdir), das Rätsel (topishmoq);*

Eslatma. **-nis** qo‘shimchasi bilan ba‘zan jenskiy roddagi otlar, **-sal, -sel** suffikslari bilan esa mujskoy va jenskiy roddagi otlar ham yasaladi. Masalam: *die Erlaubnis (ruxsat) die Kenntnis (bilim), die Trübsal, die Mühsal, der Stöpsel;*

-icht: *das Dickicht, das Röhricht;*

-tel: *das Drittel, das Viertel;*

Quyidagi qo‘shimchalar chet tillardan kirgan sredniy roddagi otlarning qo‘shimchalaridir.

-al: *das Lineal (chizg‘ich), das Signal (signal);*

-ment: *das Instrument (asbob), das Dokument (hujjat);*

-at: *das Plakat (plakat), das Diktat (diktant);*

-um: *das Museum (muzey’);*

-ium: *das Auditorium, (auditoriya), das Sanatorium (sanotariya);*

-ge prefiksi yordamida yasalgan otlar: *das Gemüse, das Gebirge, das Geschlecht, das Gelächter;*

Chet tillaridan kirgan so‘zlardan quyidagi qo‘shimchalar yordamida sredniy roddagi otlar yasaladi:

-ett: *(Agar ular shaxs nomlarini nfoda etmasa): das Ballett, das Bankett, das Buffett, das Parkett, das Quartett;*

-in: *das Benzin, das Chinin, das Insulin, das Nikotin;*

-**(i) um:** *das Album, das Datum, das Plenum, das Aquarium, das Stadium;*
 -**ma:** *das Asthma, das Paradigma, das Plasma, das Klima, das Komma, das Thema;*
 -**ment:** *das Argument, das Dokument, das Element, das Experiment. (Lekin ma'lum kasb hunarga oid terminlardan ham sredniy rodga oid otlar yasaladi.). Masalan: der Zement qurilishda ishlatiladigan tsement, das Zement esa odam tishi uchun ishlatiladigan tsement;*
 -**ment (franz):** *das Appartement, das Abonnement;*
 Sredniy rod otlari haqidagi tubandagi qoidalarni ham esda tutish kerak bo'ladi.
 Sredniy rod otlari kichraytirish ma'nosini anglatadi: *das Kind, das Lamm, das Kalb.*

Otlashgan so'zlarning rodini aniqlash (Die Bestimmung des Geschlechts der substantivierten Wörter)

Nemis tilida mustaqil so'z turkumlari ham, yordamchi so'z turkumlari ham otlasha oladi va otga xos bo'lgan belgilarni qabul qiladi. Har bir otlashgan so'z uchala roddan biriga mansub bo'lib, ularning rodi quyidagilarga qarab aniqlanadi:

1. Otlashgan infinitiv sredniy rodga bo'ladi: *das Leben, das Lachen, das Versprechen, das Schreiben, das Antworten, das Laufen, das Springen, das Lernen, das Lesen.*

Das Leben des Studenten ist schwer.

2. Otlashgan ravish, bog'lovchi, undov, so'roq so'zlar ham sredniy rodga bo'ladi: *das Gestern, das Morgen, das Aber, das Ach, das Weh, das Wann, das Wohin.*

Wir haben nicht geweint,
 Wir seufzten nicht **Weh und Ach!**
 Die Tränen und die Seufzer,
 Die kamen hinternach.

(H.Heine, Band I)

3. Otlashgan sifat va sifatdoshlar abstraktva jonsiz predmetlarni bildirsa, sredniy rodga keladi: *das Gelb, das Blau, das Grün, das Ärgste.*

Das Ärgste war die Angst.

Otlashgan sifat va sifatdoshlar shaxs nomlarini bildirsa, mazmunga qarab mujskoy yoki jenskiy rodga bo'ladi:

der Fremde- die Fremde, der Vorsitzende- die Vorsitzende, der Angestellte – die Angestellte, der Kleine – die Kleine;

Die Kleine gleicht **der Geliebten**,
 Besonders wenn sie lacht.

(H.Heine, Band I)

4. Otlashgan sanoq sonlar jenskiy rodga bo'ladi: *die Fünf, die Acht, die Drei, die Zwei*

Rodi barqaror bo'lmagan otlar

Ayrim otlar barqaror rodga ega emas. Ayni bir ot ikki rodga qo'llanishi mumkin. Biroq bu narsa uning mazmuniga ta'sir qilmaydi:

der yoki **das** Katheder – kafedra ,minbar

der yoki **das** Meter – metr

der yoki **das** Tüpfel – nuqta

der yoki **das** Gummi – rezinka

der yoki **das** Abscheu- nafrat va boshqalar;

Ba'zi hollarda otlarning rodi omonimlarni bir-biridan farqlash uchun hizmat qiladi, yani otning rodi so'zning mazmuniga ta'sir qilib, uni butunlay boshqa mazmunga aylantirib yuboradi:

der Band (jild, tom) – **die** Band (lenta)

der Bauer (dehqon) – **die** Bauer (katak)

der Erbe (merosxo'r) – **das** Erbe (meros)

die Erkenntnis (bilish, anglash) – **das** Erkenntnis (hukm-sud hukmi)

der Flur (dahliz) – **die** Flur (ekunzor, o'tloq)

der Gehalt (mazmun) – **das** Gehalt (oylik ,maosh)

der Gefallen (mehribonlik) - **das** Gefallen (xursandchilik)

der Hut (shlyapa) – **die** Hut (muhofaza)

der Junge(bola, o'spirin) – **das** Junge (hayvonlarning bolasi)

der Kaffe (kofe-ichadigan) - **das** Kaffe (qahvaxona)

der Kristal(kristall) – **das** Kristall (billur oyna)

der Kunde (xaridor) – **die** Kunde (xabar)

der Leiter (rahbar) – **die** Leiter (narvon, shoti)

der Schild (qalqon) – **das** Schild (viveska)

der See (ko'l) – **die** See (dengiz)

die Steuer (soliq) – **das** Steuer (rul)

der Taube (kar) – **der** Taube (kaptar)

der Tau (qirov) – **das** Tau (yo'qon, arqon)

der Tor (ahmoq) – **das** Tor (darvoza)

der Verdienst (ish haqi) – **das** Verdienst (xizmat)

der Weise (oqil donishmand) – **die** Weise (usul yo'l)

die Wehr (mudofaa, mudofaa qilish) – **das** Wehr (to'g'on g'ov)

der Wurm – (qurt-hashorat) – **das** Wurm (himoyachisiz, zaif bola)

Nemis tilida eshitalishi bir xil, ammo rodi va ma'nosi turlicha bo'lgan bir- biriga qardosh bo'lmagan otlar ham mavjud: *der Harz Garts (tog' tizmasi) das Harz smola-qatron.*

der Mangel kamchilik

die Mangel o'qlov (kiyimni dazmollaydigan asbob)

die Mark qisqartirish
der Marsch marsch , yurish
der Mast machta (*kemada elkanlar osiladigan baland ustun*)
der Messer o'ldash asbobi
der Otter suvsar
der Reis guruch
der Taube garang

die Mark ilik
die Marsch botqoqli, unumli yer
die Mast boquv, boqish
das Messer pichoq
die Otter (*zool*) ilon
das Reis nish maysa
die Taube kaptar

Quyidagi so'zlarda ham ularning rod, forma va ma'nolari hozirgi kunda o'zgarib ketganligini, ba'zilarining esa rodi o'zgarsa ham, ma'nosi o'zgarmay qolganligini sezish qiyin emas. Masalan:

die Ecke burchak
der Import (Einfuhr) import
(*chet eldan mol keltirish*)
der Karren aravacha

das d Ecke joy belgisi
die Import chet eldan keltirilgan mollar

der Karren aravachada olib borish
(*biror narsani*)

der Lug yolg'on
der Quast keng panja, qo'l panja
der Quell manba
der Ritze yoriq, tirqish
die Röhre truba, quvur; tarnov
der Ruin xonavayron bo'lish
der Schurz fartuk, etak
der Spalt tirqish, yoriq
der Sproß qochish; novda ,shox
der Stapfen oyoq izi
der Tapfe oyoq izi
der Trupp olomon, to'da, yig'in

die Lüge yolg'on
die Quaste popuk, g'ajim
die Quelle buloq, chashma
die Ritze tirqish, yoriq
das Röhre truba, quvur; tarnov
die Ruine xaroba, vayrona
der Schürze fartuk, etak
die Spalte tirqish, yoriq
die Sprosse zina, zinapoya.
die Stapfe oyoq izi
die Tapfe oyoq izi
die Truppe truppa (*teatr yoki tsirk artistlari to'dasi*); harbiy qism

Otlarda son kategoriyasi (Die Zahlkategorie der Substantive)

Son kategoriyasi nemis tilida otlar uchun xarakterli grammatik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Otlar birgalik va ko'plik formasida qo'llanadi: Student (*der Student*) – birlik, studentlar (*die Studenten*) – ko'plik.

Nemis tilida har qanday otlar ham birlik va ko'plik formalarda qo'llanish xususiyatiga ega bo'lavermaydi. Ayrim otlar faqat birlikda qo'llansa ***sigularia tantum***, ba'zilar faqat ko'plikda qo'llansa ***pluralia tantum*** terminlari bilan yuritiladi.

Faqat sanalishi mumkin bo'lgan tushunchani ifoda etadigan otlargina ikki songa, ya'ni birlik (***der Singular, die Einzahl***) va ko'plik (***der Plural, die***

Mehrzahl) songa ega. Qiyoslang: *der Garten – die Gärten, das Buch – die Bücher, die Frau – die Frauen*. Lekin *Liebe, Freude* otlari mavhum tushunchani ifoda etganligi sababli ko‘plik formasiga ega emas.

Birlikda asosan quyidagi otlar ishlatiladi:

1) sanalmay butunning qismi ma’nosini anglatadigan turdosh otlar: *Gold, Eisen, Sand, Wolle, Brot, Fleisch, Butter* kabi;

2) jamlovchilik ma’nosini ifoda etadigan otlar: *Bürgertum, Menschheit, Publikum, Obst, Vieh* (ammo: *Heer Heere*)

3) ob – havoga oid ma’noni anglatadigan otlar: *Sonnenschein, Regen, Schnee, Wärme, Kälte*;

4) gavda (odamning) a’zolarining nomlari ham ko‘pincha birlikda ifoda etiladi: *Leber, Milz, Mund, Kinn, Stirn*;

5) abstrakt ma’noni ifoda etadigan otlar: *Leibe, Treue, Durst, Kälte, Wärme*, Ammo: *die Schönheit, die Schönheiten*.

Otlarning quyidagi turlari faqat ko‘plikda (*Pluralia tantum*) qo‘llanadi:

1) odam nomlarini ifodalab, jamlovchilik ma’nosini ifoda etadigan otlar: *die Eltern, die Geschwister, die Gebrüder*;

2) biror narsaning yig‘imi to‘plami ma’nosini anglatadigan otlar: *die Ferien*;

3) ba’zi bir geografik nomlar: *die Alpen, die Karpaten*;

4) cherkovda bo‘ladigan bayramlar va urf odatlarni bildiradigan ba’zi otlar: *die Ostern, die Weihnachten, die Fasten*;

5) ba’zi bir kasallik ma’nosini anglatadigan otlar: *die Masern, die Pocken*;

Nemis tili gramatikasiga oid adabiyotda otlarning birlik va ko‘plik berilishi va talqin etilishi bir xil emas; E.I.Shendels otlarning birlikda qo‘llanishini uch turga, ko‘plikda esa to‘rt turga bo‘lib ko‘rsatadi; K. Duden otlarning birlikda qo‘llanishini yetti turga, ko‘plikda qo‘llanishini to‘rt turga bo‘lgan, V. Yung otlarning birlikda qo‘llanishini to‘qqiz turga ko‘plikda qo‘llanishini o‘n turga bo‘lib ko‘rsatgan.¹

Biz otlarning birlikda va ko‘plikda qo‘llanadigan muhim turlarini ko‘rsatdik. Demak, otlar birlik (der Singular) va ko‘plik (der Plural) formalariga ega. Ko‘pchilik otlar birlik va ko‘plik formalariga ega bo‘lsada, biroq ulardan ba’zilari faqat birlikda, ayrimlari esa faqat ko‘plikda qo‘llanadi. Mavhum otlar, donalab sanab bo‘lmaydigan otlar asosan birlikda qo‘llanadi.

Eslatma. Nemis tilda ot sanoq son bilan qo‘llanganda ko‘plik formada bo‘ladi, o‘zbek tilida esa aksincha birlik formada bo‘ladi: **zwei Stühle – ikkita stul, zehn Hefte – o‘nta daftar**. O‘zbek tilida numerativ vazifasida kelgan otlar ham birlik shaklda bo‘ladi. Nemis tilida esa numerativning (sanoq so‘zning) birlik yoki ko‘plikda qo‘llanishi, uning roddiga bog‘liq. Numerativ jenskiy roddagi ot bilan ifodalangan bo‘lsa, ko‘plikda keladi (vier **Flaschen** Wasser, zwei **Tassen** Tee, drei **Millionen** Einwohner), mujskoy yoki sredniy roddagi ot bilan ifodalangan bo‘lsa, birlikda bo‘ladi (vier **Sack** Mehl, drei **Glas** Wasser).²

¹Mirsoatov, T. Deutsche Grammatik, Verlag (“O‘qituvchi”), Taschkent 1987

² Saidov, S., Zikrillayev, F. Grammatik der deutschen Grammatik, Verlag (“O‘qituvchi”), Taschkent 1973

Faqat ko‘plikda qo‘llaniladigan otlar: masalan,

die Auspuffgase ishlangan (chiqindi) gazlar
die Autoabgase chiqindi gazlar
die Chemikalien ximikatlari
die Einkünfte daromad
die Eltern ota-ona
die Ferien kanikul
die Geschwister opa-singil
die Gebrüder aka-uka
die Leiden qiynalish, azob
die Leute odamlar
die Masern qizamiq
die Pocken chechak
die Zwillinge egizaklar

Faqat birlikda qo‘llaniladigan otlar: masalan,

das Alleinsein yolg‘izlik
die Anerkennung tan olish
die Arbeitslosigkeit ishsizlik
die Ausbildung ta’lim, tayyorlov
die Ausdauer bardosh
das Bargeld naqd pul
die Beliebtheit mashhurlik
das Bewusstsein ong, bilish
das Blut qon
die Bundesrepublik federativ respublika
die Butter saryog‘
die Einheit birlik
die Einsamkeit kimsasizlik
das Fieber harorat
die Freiheit ozodlik
der Freiheitswille erkinlikka intilish
die Fruchtbarkeit hosildorlik
das Ganze butun
die Geographie - geografiya
die Gerechtigkeit adolat
der Geschmack ta’m, maza
die Gesundheit sog‘liq
die Gier ochko‘zlik, suqlik
der Graus (O Graus !) qo‘rqinch, dahshat

die Grippe gripp
der Husten yo‘tal
die Hölle do‘zax, jahannam
die Jugend yoshlik
die Kälte sovuq, sovuq havo
die Karies kariyes
die Konzentration diqqat
die Kritik tanqid
der Kummer qayg‘u
die Langweile zerikish
der Lärm g‘ala-g‘ovur
das Laub barglar
der Lehm loy, tuproq
die Leichtathletik yengil atletika
der Lernstress o‘qishdagi stress
das Lesen o‘qish
die Liebe sevgi, muhabbat
die Menschheit insoniyat
die Milch sut
die Musik musiqa
der Mut mardlik
die Poesie poeziya, she‘riyat
die Proza proza, nasr
das Quiz viktorina
das Recycling [risaiklin] qayta ishlash
die Ruhe tinchlik
der Silber kumush
der Schlaf uyqu
der Schmuck bezak, zeb-ziynat
der Schnee qor
der Schnupfen tumov
der Schweiß ter
der Stahl po‘lat
das Taschengeld choychaqa
der Tod o‘lim
die Traurigkeit qayg‘u, g‘am
die Treue vafodorlik
der Trost taskin, tasalli
die Umwelt atrof- muhit
das Vertrauen ishonch
die Wahl tanlash
das Wissen bilim
die

Zufriedenheit

mamnunlik

Otlarda ko‘plik formasining yasalihi (Die Pluralbildung der Substantive)

O‘zbek tilida ko‘plik formasi **-lar** affiksi bilan yasaladi. Nemis tilida esa otlarning ko‘pligi quyidagi vositalar yordamida yasaladi:

a) artikl yordamida:

*der Lehrer – **die** Lehrer, das Wappen – **die** Wappen
der Wagen – **die** Wagen, das Rätsel – **die** Rätsel*

b) umlaut yordamida:

*die Mutter – die **Mütter**
die Tochter – die **Töchter***

d) Artikl + suffiks (**-e, (-e)n, -er, -s**) yordamida:

*der Tisch – **die** Tische, das Bild – **die** Bilder
der Junge – **die** Jungen, der Park – **die** Parks*

e) artikl + umlaut yordamida:

*der Garten – **die** Gärten
der Vater – **die** Väter
das Kloster – **die** Klöster????*

f) artikl + umlaut + suffiks yordamida:

*der Wald – **die** Wälder
das Tuch – **die** Tücher
der Wolf – **die** Wölfe*

Nemis tilida otlarning ko‘plik yasalihi besh turga bo‘linadi:

- 1.Ko‘plikda **-e** suffiksini qabul qiluvchi otlar (umlautli yoki umlautsiz)
- 2.Ko‘plikda **-(e)n** suffiksini qabul qiluvchi otlar(umlautsiz)
- 3.Ko‘plikda **-er** suffiksini qabul qiluvchi otlar (umlautli)
4. Ko‘plik formasini suffikssiz yasovchi otlar(umlautli yoki umlautsiz)
- 5.Ko‘plik yasalihi maxsus hollari (Boshqa tillardan o‘zlashgan otlar **-s** suffiksini oladi).

Ko‘plik yasalihi birinchi turi (Der I. Typ der Pluralbildung)

Ko‘plik yasalihi birinchi turiga kiruvchi otlar ko‘plikda **-e** suffiksini qabul qiladi.Otlarning o‘zagidagi unli tovushlar umlaut olishi yoki olmasligi mumkin.Bu turga quyidagi otlar kiradi:

- 1.Mujskoy roddagi otlarning asosiy qismi, o‘zagida **a,o, u** unlisi va **au** diftonggi bo‘lgan otlarning umlaut oladi (bu otlar bir bo‘g‘inli bo‘ladi):

*der Satz – die **Sätze** (gap – gaplar)
der Fuchs –die **Füchse** (tulki - tulkilar)*

Eslatma. Ba’zi otlar esa umlaut olmaydi:

*der Tag – die **Tage** (kun - kunlar)
der Schuh – die **Schuhe** (botinka - botinkalar)
der Abend –die **Abende** (oqshom- oqshomlar)*

2.Shuningdek **-ier,-eur,-är,-an, -al** kabi suffikslar bilan kelgan, boshqa tillardan nemis tiliga kirib qolgan mujskoy roddagi internatsional soʻzlar:

der Dekan – die Dekane (dekan - dekanlar)

der General – die Generale (general - generallar)

3.Bir boʻgʻinli jenskiy roddagi otlar, oʻzagida **a,o, u** unlilari doim umlaut oladi

die Hand-die Hände (qoʻl – qoʻllar)

die Stadt – die Städte (shahar - shaharlar)

4.a) Sredniy roddagi koʻpgina ota, ular umlaut olmaydi:

das Bott – die Boote (qayiq – qayiqalar)

das Jahr – die Jahre (yil - yillar)

b) **-ment, -at** suffikslari bilan kelgan soʻzlar:

das Dokument – die Dokumente (hujjat - hujjatlar)

das Diktat – die Diktate (diktant -diktantlar)

Eslatma: **-nis** suffiksi bilan tugagan jenskiy va sredniy roddagi otlar koʻplikda **-e** suffiksini qabul qiladi,biroq koʻplikda yana bir **-s** qoʻshimchasini oladi.

die Kenntnis – die Kenntnisse

das Ergebnis – die Ergebnisse

Koʻplik yasallishining birinchi turiga kiradigan otlar: *masalan,*

der Apparat apparat

die Axt bolgʻa

der Ball koptok

die Bank skameyka

der Baum daraxt

die Besorgnis gʻamxoʻrlik

der Betrieb korxona

das Bott qayiq

das Diktat diktant

das Dokument hujjat

der Fahrstuhl lift

die Faust musht

das Fest bayram

der Freund doʻst

der Friseur sartarosh

die Frucht meva

der Gang yoʻl

die Gans gʻoz

der Gast mehmon

das Gebiet soha

der Kopf bosh

das Haar soch
das Heft daftar
der Hof hovli
der Hund it
der Hut shlyapa
der Ingenieur muhandis
das Institut institut
das Jahr yil
der Kampf kurash
der Korb savat
die Kraft kuch
die Kuh sigir
das Lineal chizg'ich
die Maus sichqon
der Monat oy
die Nacht tun
die Nuß yong'oq
das Parlament parlament
das Pferd ot
das Plakat plakat
der Plan reja
der Platz maydon
das Program programma
der Punkt nuqta
das Referat referat
der Sack qop
der Sohn o'g'il
das Schiff qayiq
das Schirm zontik
die Schnur arqon
der Schrank shkaf
das Spiel o'yin
die Stadt shahar
der Stuhl stul
der Schuh tufli
der Tag kun
das Telegramm telegramma
der Teppich gilam
das Tier hayvon
der Tisch stol
die Wand devor
das Werk zavod
der Wolf bo'ri
die Wurst kolbasa
das Zelt chodir

das Ziel maqsad
der Zug poyezd

Ko‘plik yasalishining ikkinchi turi (Der II. Typ der Pluralbildung)

Ko‘plik yasalishining ikkinchi turiga kiradigan otlar ko‘plikda **(-e)n** suffiksini qabul qiladi, ular hech qachon umlaut olmaydi. Bu turga quyidagi otlar kiradi:

1. Jenskiy roddagi otlarning asosiy qismi:

die Tür – die Türen (eshik - eshuklar)

die Blume – die Blumen (gul – gullar)

2. a) **-e, -el, -er** bilan tugagan otlar ko‘plikda faqat **-n** qo‘shimchasini oladi:

die Schule – die Schulen (maktab - maktablar)

die Schwester – die Schwestern (opa- opalar)

Eslatma: Birlikda **-in** bilan tugagan jenskiy roddagi otlardan ko‘plik yasashda yana bir **-n** qo‘shiladi:

die Schülerin – die Schülerinnen (o‘quvchi qiz – o‘quvchi qizlar)

die Lehrerin – die Lehrerinnen (o‘qituvchi aol- o‘qituvchi ayollar)

b) **-tion, -tät, -ik, -ur, -ie** suffiksli chet tillardan kirgan so‘zlar:

die Zensur – die Zensuren (baho - baholar)

die Fakultät – die Fakultäten (fakultet - fakultetlar)

s) **-ung, -ei, (-erei)** suffikslari bilan yasalgan otlar:

die Übung – die Übungen

3. Kuchsiz turlanishdagi mujskoy roddagi otlarning hammasi, ular jonli predmetni ifodalaydigan

a) birlikda **-e** qo‘shimchasi bilan tugagan mujskoy roddagi otlar:

der Hase – die Hasen (quyon – quyonlar)

der Löwe – die Löwen (sher - sherler)

b) bir vaqtlar **-e** unlisiga ega bo‘lib, keyinchalik til taraqqiyoti natijasida o‘sha unlini yo‘qotgan otlar:

der Mensch – die Menschen (kishi - kishilar)

der Bär – die Bären (ayiq - ayiqlar)

s) Chet tillardan o‘zlashgan va **-ant, -at, -ent, -ist, -ot, -graph, -og(e), -nom, -or, -log, -og, -et, -at, -soph** suffikslari bilan tugagan otlar

der Student – die Studenten (student - studentlar)

der Soldat – die Soldaten (soldat - soldatlar)

d) mujskoy roddagi otlarning kuchli turlanishga kiradigan kichik bir qismi:

der Staat – die Staaten (davlat - davlatlar)

der See – die Seen (ko‘l – ko‘llar)

e) sredniy roddagi quyidagi otlar (ular hech vaqt umlaut olmaydi):

das Herz – die Herzen (yurak - yuraklar)

das Auge – die Augen (ko‘z – ko‘zlar)

Ko‘plik yasalishining ikkinchi turiga kiradigan otlar: masalan

der Affe maymun
die Ansichtskarte otkritka
die Antwort javob
die Arbeit ish
die Arbeiterin ishchi ayol
der Aspirant aspirant
die Ausstellung ko‘rgazma
der Bär ayiq
der Bauer dehqon
das Bett kravat
die Deklination turlanish
der Doktor doktor
die Feder pero
die Frage savol
die Frau ayol
der Genosse o‘rtoq
der Hase quyon
der Held qahramon
das Hemd ko‘ylak
der Herr janob
das Herz yurak
der Hirt cho‘pon
die Insekt hashorat
der Junge yig‘it
der Knabe bola
die Krankenschwester hamshira
die Lehrerin o‘qituchi ayol
das Leid azob
der Mensch kishi
der Nachbar qo‘shni
der Name ism, nom
das Ohr quloq
der Pädagog pedagog
der Paragraph paragraf
der Professor professor
der Russe rus
der Same urug‘
der Soldat soldat
die Straße ko‘cha
der Student talaba
die Studentin talaba qiz
die Stunde dars
die Tafel doska
der Traktor traktor

die Tür eshik
die Vase vaza
das Verb fe'l
die Vorlesung ma'ruza
die Übung mashq
die Universität universitet
die Wohnung uy, kvartira
die Zeitschrift jurnal
die Zeitung gazeta

Ko'plik yasalishining uchinchi turi (Der III. Typ der Pluralbildung)

Ko'plik yasalishining uchinchi turiga kiradigan otlar ko'plikda **–er** suffiksini qabul qiladi, ular har doim umlaut oladi. Bu turga quyidagi otlar kiradi:

1. Sredniy roddagi bir bo'g'inli otlar:

das Bild – die Bilder (rasm – rasmlar)

das Buch – die Bücher (kitob - kitoblar)

2. Mujskoy roddagi otlarning kichik bir guruhi kiradi:

der Mann – die Männer (kishi – kishilar)

der Wald – die Wälder (o'rmon – o'rmonlar)

Eslatma: Jenskiy roddagi otlar ko'plik yasalishining uchinchi turiga kirmaydi.

Ko'plik yasalishining uchinchi turiga kiradigan otlar: masalan

das Blatt barg, varaq
das Buch kitob
das Dach tom
das Dorf qishloq
das Ei tuxum
das Fach fan
das Feld dala
der Geist aql, ong
das Gesicht qiyofa
das Glas stakan
der Gott xudo
das Grab qabr
das Haus uy
das Huhn tovuq
der Irrtum xato
das Kalb buzoq
das Kind bola
das Kleid kuylak
das Lamm qo'zichoq

das Land qishloq
der Lehrfach fan
der Leib badan
das Lied qo'shiq
der Mund og'iz
das Rad velosiped
der Rand qirg'oq
der Reichtum boylik
der Strauch buta
das Tal vodi
das Tuch dastro'mol
das Volk xalq
der Wald o'rmon
das Wort so'z
der

Wurm

qurt

Ko'plik yasallashining to'rtinchi turi (Der IV. Typ der Pluralbildung)

Ko'plik yasallashining to'rtinchi turiga kiradigan otlar ko'plikda hech qanday suffiks olmaydi. Shuning uchun bu tur nulevoy tur deb ham yuritiladi. To'rtinchi turga har uchala roddagi otlar kiradi. O'zagida **a, o, u** unlisi bo'lgan otlar umlaut oladi. Bu turga quyidagi otlar kiradi:

1. Mujskoy roddagi otlar. Birlikda **-el, -er, -en** suffikslari bilan tugagan mujskoy roddagi otlar. Ulardan ayrimlari umlaut oladi:

der Lehrer – die Lehrer (o'qituvchi – o'qituvchilar)

der Garten – die Gärten (bog' – bog'lar)

Lekin bulardan umlaut olmaydiganlari ham:

der Wagen – die Wagen (vagon - vagonlar)

der Koffer – die Koffer (chemodan - chemodanlar)

2. Sredniy roddagi otlar. Bu otlar umlaut olmaydi. Bu turga quyidagi otlar kiradi:

a) birlikda **-el, -er, -en** suffikslari bilan tugagan otlar:

das Zimmer – die Zimmer (xona - xonalar)

das Mittel – die Mittel (usul - usullar)

b) **-chen, -lein, -sal, -sel** kabi suffikslar bilan tugagan sredniy roddagi otlar:

das Mädchen – die Mädchen (qiz - qizlar)

das Tischlein – die Tischlein (stolcha - stolchalar)

s) birlikda **-ge** prefiksi va **-e** suffiksi bo'lgan sredniy roddagi otlar:

das Gebäude – die Gebäude (bino - binolar)

3. Jenskiy roddagi otlar. Jenskiy roddagi otlarning faqat ikkitasi kiradi , bu otlar umlaut oladi.

die Mutter – die Mütter (ona – onalar)

die Tochter – die Töchter (qiz - qizlar)

Ko‘plik yasalishining to‘rtinchi turiga kiradigan otlar: masalan

der Adler burgut
der Arbeiter ishchi
der Artikel maqola
der Bruder aka-uka
der Brunnen fontan
das Buchlein kitobcha
der Dolmetscher tarjimon
der Einwohner aholi
das Fenster deraza
der Flieger uchuvchi
der Garten bog‘
das Gebäude bino
das Gemälde surat
der Hammer bolg‘a
das Kästchen yashikcha
der Koffer jamadon
der Kuchen pirojniy
das Lager oromgoh
der Lappen latta
das Mädchen qiz
der Mangel kamchilik
der Mantel palto
das Märchen ertak
das Messer pichoq
der Ofen pechka
der Ordner navbatchi
das Rätsel topishmoq
der Redner notiq
das Röslein atirgulcha
der Schriftsteller yozuvchi
der Schlosser slesar
der Schlüssel kalit
der Schüler o‘quvchi
der Spiegel oyna
das Städtchen shahartcha
die Tochter qiz
der Vogel qush
der Vater ota
der Ufer qirq‘oq
der Wagen vagon
das Wappen gerb

Ko‘plik yasallashining maxsus hollari (**Die besonderen Fälle der Pluralbildung**)

Nemis tilida shunday otlar borki, ular o‘z ko‘pligini yuqorida keltirilgan to‘rt turga bo‘ysunmagan holda yasaydi. Shuning uchun biz ularni maxsus tur sifatida ko‘rib chiqamiz.

1. Boshqa tillardan o‘zlashgan mujskoy va sredniy roddagi otlar, ya‘ni ingliz va fransuz tillaridan nemis tilga kirib qolgan so‘zlar **–s** suffiksini oladi:

der Park – die Parks

das Video – die Videos

2. Boshqa tillardan o‘zlashgan **–um** va **–a** , **–ion** suffiksli sredniy roddagi otlar ko‘plikda **–en** qo‘shimchasini qabul qiladi:

das Museum – die Museen

das Drama – die Dramen

3. **–ismus** suffiksli mujskoy roddagi otlar ko‘plikda **–en** suffiksini qabul qiladi:

der Neologismus – die Neologismen

der Organismus – die Organismen

4. Kelib chiqishi lotin tiliga oid bo‘lgan, sredniy roddagi ayrim otlar ko‘plikda **–ien** suffiksini oladi:

das Auditorium – die Auditorien

das Adverb – die Adverbien

5. Birlikda ikkinchi komponenti **–mann** bo‘lgan qo‘shma so‘zlarning ko‘pligi – **männer** yoki **–leute** shaklida bo‘ladi:

der Kaufmann – die Kaufleute

der Seemann – die Seeleute

Biroq: *der Staatsmann* (davlat arbobi) – *die Staatsmänner*

Der Schneemann (qorbobo) – *die Schneemänner*

6. Kelib chiqishi grek va grek –latin tillariga oid bo‘lgan sredniy rod otlari ko‘plikda **–ta** suffiksini oladi:

das Klima- die Klimata

das Komma – die Kommata

7. Quyidagi otlar ko‘plikda **–a** suffiksini qabul qiladi:

das Nomen – die Nomina

das Maskulinum – die Maskulina

das Femininum – die Feminina

8. Birlikda **–on** suffiksiga ega bo‘lgan sredniy rod otlari ikki yo‘l bilan ko‘plik formasini yasaydi. Bulardan ba‘zilari **–en** suffiksini, boshqalari esa **–a** suffiksini oladi :

das Stadion – die Stadien

das Lexikon – die Lexika

9. Ba‘zi (yasama bo‘lmagan) birlikda **–us** suffiksiga ega bo‘lgan mujskoy va sredniy rod otlari ko‘plikda **–e**, **–i**, **–ora**, **–era** suffikslarini qabul qiladi

der Kursus – die Kurse

der Modus – die Modi
das Tempus –die Tempora
das Genus – die Genera

10. Bundan tashqari otning ko'plik formasi otning ikkinchi qismiga boshqa so'z qo'shilishi bilan yasaladi:

der Rat –die Räte – die Ratschläge

Ko'plik yasallishining maxsus hollariga kiradigan otlar: masalan

das Auditorium auditoriya
das Auto mashina
das Datum sana
das Drama drama
das Foto surat
das Hobby qiziqish
das Kino kino
die Kokon pilla
der Klub klub
das Laboratorium laboratoriya
der Mexanismus mexanizm
das Menerale mineral
der Neologismus yangilik
das Numerale sonlar
der Organismus organizm
der Park istirohat bog'i
das Partizip sifatdosh
das Thema mavzu
das Video video
das Zentrum markaz

Ikki ko'plik formasiga ega bo'lgan otlar (Doppelformen bei der Pluralbildung)

Nemis tilida ba'zi otlar ko'plikning ikki formasiga ega. Masalan:

*das Portät – **die** Porträts(e)*
der Admiral- die Admirale, Admiräle
das Deck – die Decke, Decks.
der Block – die Blöcke, Blocks

Ko'pgina omonimlar bir-birilaridan faqat grammatik rod bilan farq qilmay, ko'plik yasallishi bo'yicha ham farq qiladi:

die Banke – skameyka – die Bänke
die Bank – bank – die Banken
der – Bauer – dehqon – die Bauern
der Erbauer – quruvchi – die Erbauer

das Bauer – qafas – die Bauer
die Mutter – ona – die Mütter
die Mutter – chayka – die Muttern (Schraubenmutter)
das Band – lenta – die Bänder
der Schild – qalqon – die Shilde
das Shild – viveska – die Schider
der Tor – nodon – die Tore
das Tor – darvoza – die Tore
der Leiter – rahbar – die Leiter
der Leiter – narvon – die Leitern
der Flur – karidor – die Fulure
die Flur – dala maydoni – die Fluren

Kelishik kategoriyasi (Die Kategorie des Kasus)

Kelishik otning grammatik formasi bo'lib, uning gapdagi boshqa so'zlarga bo'lgan munosabatini xarakterini belgilaydi .

Kelishik otning sintaktik vazifasidan kelib chiqadigan ma'noni ham ifoda etadi.

Nemis tilida kelishiklar to'rtta kelishik **der Nominativ (Werfall)** - *bosh kelishik*, **der Genitiv (Wasfall)** - *qaratqich kelishigi*, **der Dativ (Wemfall)** - *jo'nalish kelishigi*, **der Akkusativ (Wenfall)** - *tushum kelishigi* bor. Har bir kelishikning ma'lum so'roqlari bor:

Nominativ – wer? was? (kim? nima?)

Genitiv – wessen ? (kimning? nimaning?)

Dativ – wem? (kimga? nimaga?)

Akkusativ – wen? was? (kimni? nimani?)

Otning kelishiklar bo'yicha o'zgarishiga turlanish deyiladi. Bulardan (bosh kelishik) Nominativ vositasiz (der gerade Kasus), qolgan uchta kelishik vositali kelishik (die obliquen (abhängig) Kasus) deyiladi. Otlarning turlanish xillari birgalikda aniqlanib, ular artikl va kelishik qo'shimchalari yordamida belgilanadi. Bunda artikl muhim rol o'ynaydi, chunki nemis tilida kelishik qo'shimchalarining soni kam bo'lib, ular faqat **-(e)s**, **-e**, **-(e)n** dan iborat. Bundan tashqari ko'p ot formalari kelishik qo'shimchasiga ega emas: die Frau, der Frau, der Frau, die Frau. Otlar birlikda uch xil turlanishga ega bo'lib, ularning ko'plikda turlanishi bir xil bo'lib, asosiy vazifani artikl bajaradi.

Nemis tilida artikl kelishiklar artikl va suffikslar yordamida ifoda etiladi. Bunda artikl roli juda katta, chunki kelishik qo'shimchalarining soni kam bo'lib, ularning vazifasini qisman artikl bajaradi. Masalan: *die Brille des Vaters* misolidagi *Vater* so'ziga qo'shilgan qo'shimchasi qaratqich kelishikni anglatasa, *er ruft den Lehrer* misolidagi otning tushum kelishigida kelganini faqat kelishik emas, artikl ham anglatmoqda.

Turlanish (Die Deklination, die Beugung)

Demak, ot va otlashgan soʻzlarning kelishiklar boʻyicha oʻzgarishiga **turlanish** deyiladi.

Otlar birlikda uch xil turlanishga ega:

1. kuchli turlanish (die starke Deklination)
2. kuchsiz turlanish (die schwache Deklination)
3. jenskiy turlanish (weibliche Deklination)

Bundan tashqari baʼzi otlar maxsus turlanish va atoqli otlarning turlanish turiga ega.

Otlarning kuchli turlanishi (Die starke Deklination der Substantive)

Kuchli turlanishning oʻziga xos belgisi otlarning Genetivda **(-e) s** qoʻshimchasini olishidir.

der Lehrer – des Lehrers

das Buch – des Buches

Kuchli turlanishga mujskoy roddagi otlarning asosiy qismi va sredniy roddagi otlarning **das Herz** (yurak) soʻzidan tashqari hammasi kiradi. Bir boʻgʻinli otlar va **–s, –ß, –z, –x, –sch, –st, –tz, –ck, –pf** kabi undoshlar bilan tugagan otlar har doim Genetivda **–es** qoʻshimchasini oladi.

das Haus – des Hauses

der Pilz – des Pilzes

Oʻzagi **–el, –er, –en** ga tugagan otlar Genetivda faqat **–s** qoʻshimchasini oladi.

der Laden – des Ladens

der Flieger – des Fliegers

Boshqa kelishiklarda esa otlar kelishik qoʻshimchalarini qabul qilmaydi. Faqat bir boʻgʻinli otlar Dativda **–e** oladi. Biroq bu qoʻshimchani qoʻllash shart emas.

Otlarning kuchli turlanish jadvali

Kasus	Maskulinum	Neutrum
N.	der Schüler, der Tag	das Buch, das Mädchen
G.	des Schüler-s, des Tages	des Buches, des Mädchens
D.	dem Schüler, dem Tag	dem Buche, dem Mädchen
Akk	den Schüler, den Tag	das Buch, das Mädchen

Otlarning kuchsiz turlanishi (Die schwache Deklination der Substantive)

Kuchsiz turlanishda otlar Nominativdan tashqari barcha kelishiklarda (**-e**) **n** qo‘shimchasini oladi. Bu turlanishga mujskoy roddagi otlarning kuchli turlanishga kirmagan qismi kiradi, ular asosan jonli predmetni ifodalaydi. Ular quyidagilar:

a) birlikda **-e** bilan tugagan mujskoy roddagi jonli narsalarni ifodalaydigan otlar:

der Genosse

der Löwe

b) bir bo‘g‘inli va ilgari **-e** bilan tugab, hozirda uni yo‘qotgan mujskoy roddagi otlar:

der Bär

der Herr

s) xorijiy tillardan nemis tiliga o‘zlashgan va **-ant, -ent, -ist, -at, -et, -ot, -nom, -graph, -og, -soph** suffiksli mujskoy roddagi otlar:

der Jurist

der Advokat

Otlarning kuchsiz turlanish jadvali

Kasus	Maskulinum	Maskulinum
N.	der Hase	der Student, der Mensch
G.	des Hasen	des Studenten, des Menschen
D.	dem Hasen	dem Studenten, dem Menschen
Akk	den Hasen	den Studenten, den Menschen

Kuchsiz turlanishga kiradigan otlar: *masalan*

Der Absolvent

der Affe

der Alte

der Advokat

der Agronom

der Architekt

der Aspirant

der Assistent

der Astronom

der Automat

der Bär

der Barbar

der Christ

der Diplomat

der Fink

der Photograph

der Franzose

der Fürst

der Genosse

der Geologe

der Graf

der Hase
der Held
der Herr
der Hirt
der Junge
der Kamerad
der Knabe
der Kollege
der Konsonant
der Kunde
der Laborant
der Leopard
der Löwe
der Lump
der Matrose
der Mensch
der Mohr
der Narr
der Neffe
der Ochs
der Optimist
der Pädagog(e)
der Paragraph
der Patient
der Patriot
der Pfaffe
der Philosoph
der Planet
der Poet
der Pole
der Praktikant
der Prinz
der Rabe
der Riese
der Schelm
der Schwede
der Sklave
der Soldat
der Spatz
der Student
der Traktorist
der Vorfahr
der Ungar
der Usbeke
der Zeuge

Eslatma. Nemis tilida shunday otlar ham borki, ular yuqoridagi har ikkala turlanishga mansubdir:

der Bauer, der Nachbar, der Nerv, der Magnet, der Untertan, der Star, der Oberst, der Vetter.

N.	der Bauer
G.	des Bauers yoki Bauern
D.	dem Bauer yoki Bauern
Akk.	den Bauer yoki Bauern

Otlarning jenskiy turlanishi (Die weibliche Deklination der Substantive)

Jenskiy turlanishga kiradigan otlar kelishik qo'shimchalarini olmaydi, faqat artiklo'zgaradi xolos. Bu turlanishga faqat jenskiy roddagi otlar kiradi.

Otlarning jenskiy turlanish jadvali.

Kasus	Femininum	Femininum
N.	die Blume	die Tür
G.	der Blume	der Tür
D.	der Blume	der Tür
Akk	die Blume	die Tür

Otlarning maxsus turlanishi (Die spezielle Deklination)

Otlar uch asosiy turlanishdan tashqari maxsus turlanishga ham ega. Bu turlanishga mujskoy roddagi quyidagi otlar kiradi: **der Buchstabe, der Frieden yoki der Friede, der Gedanke, der Name, der Wille, der Glaube, der Same, der Schade, der Funke, der Fells,** bundan tashqari sredniy roddagi das Herz so'zi kiradi. Bu turlanishning asosiy xususiyati shundan iboratki, otlar Genitivda **-ens**, Dativ va Akkuzativda **-en** qo'shimchasini qabul qiladi, faqat **das Herz** so'zi Akkuzativda qo'shimcha olmaydi

Otlarning maxsus turlanish jadvali.

Kasus	Maskulinum	Neutrum
N.	der Friede (n), der Same	das Herz
G.	des Fried ens , des Sam ens	des Herze ns
D.	dem Frieden , dem Samen	dem Herze n
Akk	den Frieden , den Samen	das Herz

Ko'plikda bu otlarning hammasi **-(e)n** suffiksini oladi: die Herzen, die Namen, die Buchstaben.

Eslatma: Bu otlardan ba'zilar ikki xil shaklga ega:

der Friede – der Frieden

der Fels – der Felsen

Aniq artikl bilan qo'llanadigan geografik nomlarda avvalo artikl turlanadi. Mujskoy roddagi otlarga Genetiv kelishigi qo'shimchasi **–s** ni qo'shsa ham, qo'shmasa ham bo'ladi. Jenskiy roddagi atoqli otlarga esa hech qanday qo'shimcha qo'shilmaydi

Turlanish jadvali

N.	der Iran	der Rhein	die Türkei
G.	des Iran(s)	des Rhein(s)	der Türkei
D.	dem Iran	dem Rhein	der Türkei
Akk	den Iran	den Rhein	die Türkei

Otlarning ko'plikda turlanishi (Die Deklination der Substantive im Plural)

Nemis tilida barcha otlar ko'plikda bir xil turlanadi. Ular faqat Dativ kelishigida – **(e) n** kelishik qo'shimchasini oladi. Agar ot ko'plikda **–en** va **–s** suffiksiga ega bo'lsa Dativ kelishigida **–en** qo'shimchasini olmasdan o'z holicha qoladi.

Otlarning ko'plikda turlanish jadvali.

Kasus	Plural		
N.	die Leiter ,	die Söhne,	die Bücher
G.	der Leiter ,	der Söhne,	der Bücher
D.	den Leiter- n ,	den Söhnen,	den Büchern
Akk	die Leiter,	die Söhne,	die Bücher

Kasus	Plural	
N.	die Knaben ,	die Kinos
G.	der Knaben ,	der Kinos
D.	den Knaben,	den Kinos
Akk	die Knaben ,	die Kinos

Atoqli otlarning turlanishi (Die Deklination der Eigennamen)

Atoqli otlar ham boshqa otlardek ,kelishiklar bo'yicha turlanib,faqat Genetivda **–s** qo'shimchasini oladi:Heines Gedichte, Alischers Eltern, die Hauptstadt Usbekistans.

Karims Diktat ist fehlerlos.

Jenskiy rodga tegishli **-ie, -e** qo'shimchalari bilan tugagan ismlar Genetivda **-ns** yoki **-s** qo'shimchasini oladi:

Elfriedes Mutter, Annamariens Mann, Marie-Mariens.

Mujskoy rodga tegishli **-s, -ß, -x, -z** undoshlari bilan tugagan ismlar Genetivda **-ens** qo'shimchasini oladi:

Franzens Mutter, Fritzens Mutter

Ba'zan **-s, -ß, -x, -z** undoshlar bilan tugagan ism va familiyalar Genetivda **apostrof** belgisini (')ni oladi:

Thomas' Bekannten (statt Thomansens Bekannten)

Ko'pincha Genetivdagi **-s** qo'shimchasi o'rniga Dativning **von** predlogi ishlatiladi.

Karims Heft - das Heft von Karim

Ba'zan Genetivda turgan ism va familiyalar oldidan aniq artikl ko'plikda qo'llangan bo'ladi. Bunda ism yoki familiya bitta shaxsni emas, balki, o'sha shaxsga tegishli bo'lgan butun oilani, yaxlit bir xonadon kishilarini ifodalab keladi:

die Buddenbrocks – Buddenbroklar oilasi.

Agar atoqli ot oldidan sifat aniq artikl bilan qo'llangan bo'lsa, atoqli ot Genetiv birlikda **-s** qo'shimchasini olmaydi. Geografik nomlarda esa u fakultativ – olishi ham, olmasligi ham mumkin:

*die Hadissen des großen Ismoil Buchoriy,
die Geschichte des alten Usbekistan(s).*

Agar shaxs bir necha nomga ega bo'lsa, faqat oxirgisi turlanadi va u qo'shimcha oladi:

*Friedrich Schillers Dramen,
Abu Ali Ibn Sinos Werke.*

Agar atoqli ot oldidan shu shaxs unvoni (mansabi yoki lavozimi)ni ifodolovchi ot artikl bilan kelgan bo'lsa, faqat unvonning o'zi turlanadi:

die Vorlesung des Professors Karimow.

Agar unvon, mansab yoki lavozimni ifodalovchi ot artiklsiz qo'llangan bo'lsa, atoqli otning o'zi turlanadi: Das ist Professor Karimows Lehrbuch.

Qo'shma otlar (Die zusammengesetzten Substantive)

Qo'shma otlar ikki yoki undan ortiq otning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi. Qo'shma otlarning rodi birinchi otning rodi bilan emas, balki ikkinchi otning rodi bilan keladi.

*das Land + die Karte = die Landkarte
der Brief + die Marke = die Briefmarke*

Qo'shma otlar tuzilishiga ko'ra ikkiga: bog'lovchili va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma otlarga bo'linadi.

Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma otlarda ikki yoki undan ortiq so'z o'zaro bog'lovchi elementisiz birikadi:

der Vater + das Land = das Vaterland

***das** Haus + die Aufgabe=**die** Hausaufgabe
das Labor + die Arbeit=**die** Laborarbeit*

Bog'lovchili bog'langan qo'shma otlar o'zaro **-e(e)s, -er, -(e)n** kabi bog'lovchi elementlari orqali bog'lanib keladi.

*die Klasse + das Zimmer = das Klassenzimmer
der Tag + das Licht = das Tageslicht*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Deutsche Grammatik in Übungen S.Saidow 2003 y
2. Deutsch. Lehrbuch für die Studenten des Bachelorabschlusses der unphilologischen Hochschulen G.A.Usmanowa, G.M.Mansurowa, N.T.Ischankulowa 2013 y
3. Deutsch. Lehrbuch der deutschen Sprache für das 1.2 und 3.Studienjahr 2011 y
4. Deutsch. Oliy o'quv yurtlari uchun. E.B. Toshev, T.Ochilov, K.Sh. Taniqulova 1994 y